Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 05, 2026

NATIONAL LEGAL MECHANISMS FOR THE PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN UZBEKISTAN: STAGES OF FORMATION AND PROSPECTS FOR DEVELOPMENT

Nurov Eson Igamovich

Military Security and Defense University of the Republic of Uzbekistan, Associate Professor of Legal Disciplines, Department of National Pride and Military Patriotism

nuroveson63@gmail.com

Abstract

The article analyses the main stages in the formation of national legal mechanisms for the protection of human rights in the Republic of Uzbekistan. It examines the legal foundation laid by the 1992 Constitution; the establishment of the Ombudsman and the National Human Rights Centre in 1995–1996; the reforms of 2005–2008, including the abolition of the death penalty and the introduction of habeas corpus; the 2017 Action Strategy; the creation of the National Preventive Mechanism against torture in 2019; the adoption of the National Human Rights Strategy in 2020; and the introduction of the constitutional complaint by the 2023 revised Constitution. The author identifies existing problems and substantiates directions for improving the system.

Keywords

human rights, national legal mechanism, Ombudsman, Constitutional Court, constitutional complaint, National Strategy, prevention of torture, rule of law.

O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING MILLIY HUQUQIY MEXANIZMLARI: SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Nurov Eson Igamovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi huquqiy fanlar sikli dotsenti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilishning milliy huquqiy mexanizmlari shakllanishining asosiy bosqichlari tahlil qilingan. Mustaqillikning dastlabki yillarida 1992-yilgi Konstitutsiya bilan qo‘yilgan huquqiy poydevor, 1995–1996-yillarda Ombudsman va Inson huquqlari bo‘yicha Milliy

markaz institutlarining tashkil etilishi, 2005–2008-yillardagi o‘lim jazosini bekor qilish va habeas corpus kabi islohotlar, 2017-yildan boshlangan Harakatlar strategiyasi, 2019-yilda qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha Milliy preventiv mexanizmning joriy etilishi, 2020-yilda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiyaning qabul qilinishi hamda 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan konstitutsiyaviy shikoyat institutining joriy qilinishi ko‘rib chiqilgan. Muallif mavjud muammolarni aniqlab, tizimni takomillashtirish bo‘yicha taklif va istiqbollarni asoslaydi.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, milliy huquqiy mexanizm, Ombudsman, Konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy shikoyat, Milliy strategiya, qiynoqlarning oldini olish, qonun ustuvorligi.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Нуров Эсон Игамович - Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, доцент кафедры правовых дисциплин, кафедра «Национальная гордость и воинский патриотизм»

Аннотация. В статье анализируются основные этапы формирования национальных правовых механизмов защиты прав человека в Республике Узбекистан. Рассматриваются правовая основа, заложенная Конституцией 1992 года; создание в 1995–1996 годах институтов Омбудсмана и Национального центра по правам человека; реформы 2005–2008 годов (отмена смертной казни, введение хабеас корпус); Стратегия действий 2017 года; создание в 2019 году Национального превентивного механизма по предупреждению пыток; принятие Национальной стратегии по правам человека в 2020 году; а также введение института конституционной жалобы новой редакцией Конституции 2023 года. Автор выявляет существующие проблемы и обосновывает направления совершенствования системы.

Ключевые слова: права человека, национальный правовой механизм, Омбудсман, Конституционный суд, конституционная жалоба, Национальная стратегия, предупреждение пыток, верховенство закона.

Kirish. Inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash zamonaviy huquqiy davlatning asosiy mezoni hisoblanadi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan standartlar, avvalo, 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt [7; 8] davlatlarga nafaqat huquqlarni e’tirof etish, balki ularni himoya qilishning samarali ichki mexanizmlarini yaratish majburiyatini ham yuklaydi. Shu sababli milliy huquqiy mexanizmlar – konstitutsiyaviy kafolatlar, mustaqil sud hokimiyati, ombudsman kabi institutlar, shikoyat qilish tartiblari va huquqiy tarbiya tizimi – inson huquqlarini real ta’minlashning asosiy vositasiga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘z huquqiy tizimini xalqaro standartlar asosida shakllantirishni boshladi. Hozirgi bosqichda bu jarayon sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarildi: 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlarini oliy qadriyat sifatida mustahkamladi [1; 5]. Shu bois milliy mexanizmlarning shakllanish yo‘lini bosqichma-bosqich o‘rganish, ularning amaldagi samaradorligini baholash va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning milliy huquqiy mexanizmlari shakllanishining tarixiy bosqichlarini aniqlash, ularning hozirgi holatini tahlil qilish va takomillashtirish istiqbollarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Milliy huquqiy mexanizm tushunchasi va tarkibi. Inson huquqlarini himoya qilishning milliy huquqiy mexanizmi deganda inson huquq va erkinliklarini tan olish, ta’minlash, buzilgan huquqlarni tiklash hamda buzganlarni javobgarlikka tortishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar, davlat organlari va muassasalari hamda ularning faoliyat tartibi majmui tushuniladi. O‘zbekiston misolida bu mexanizm quyidagi asosiy bo‘g‘inlardan tashkil topgan: (1) konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar; (2) sud himoyasi va konstitutsiyaviy nazorat; (3) parlament va ixtisoslashgan institutlar – Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), uning huzuridagi Milliy preventiv mexanizm hamda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz; (4) xalqaro majburiyatlarni bajarish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik; (5) huquqiy ong va madaniyatni oshirish tizimi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shakllanish bosqichlari

Birinchi bosqich (1991–1996): poydevor yaratish

Mustaqillikning dastlabki yillarida asosiy vazifa inson huquqlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash edi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya huquqiy davlat qurilishining asosiy qoidalarini, inson huquq va erkinliklarining ustuvorligini belgilab berdi. Xalqaro majburiyatlar yo‘nalishida O‘zbekiston 1990-yillarning o‘rtalarida Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Qiynoqlarga va muomala hamda jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya kabi asosiy universal shartnomalarga qo‘shildi [8; 9]. Shu davrda institutsional asoslar ham yaratila boshlandi: 1995-yilda Konstitutsiyaviy sud faoliyati yo‘lga qo‘yildi, shu yili Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) instituti tashkil etildi [6; 13]. 1996-yilda esa Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy markazi tuzildi.

Ikkinchi bosqich (1997–2016): institutsional mustahkamlanish va jinoiy-protsessual islohotlar

Ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan qonun bilan mustahkamlandi, 2004-yilda esa qonun yangi tahrirda qabul qilindi [13]. Mazkur davrning eng muhim yutuqlari jinoiy adliya sohasida qayd etildi. 2005-yil 1-avgustdagi Prezident farmoniga ko‘ra o‘lim jazosi 2008-yil 1-yanvardan boshlab jinoiy jazo turi sifatida bekor qilindi va uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish joriy etildi; 1994-yilda jinoyat qonunchiligida o‘lim jazosi nazarda tutilgan moddalar soni 33 ta bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda ular izchil kamaytirilgan [12]. 2008-yil 1-yanvardan sudlarga hibsga olishga sanksiya berish vakolati o‘tkazilishi orqali habeas corpus instituti joriy etildi, 2008-yil dekabrda esa Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktga ikkinchi Fakultativ protokolga qo‘shilish to‘g‘risidagi qonun imzolandi. Qiynoq qo‘llash uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining 235-moddasi ham BMT Qiynoqlarga qarshi qo‘mitasining tavsiyalarini hisobga olgan holda takomillashtirildi [11]. Shu bilan birga, bu bosqichning ichki va xalqaro baholari bir xil bo‘lmagan. Masalan, Human Rights Watch 2011-yilgi hisobotida habeas corpus amalda asosan qog‘ozda qolayotganini, ya’ni normativ yangiliklar

amaliyotda yetarli darajada ta’sir ko‘rsatmayotganini ta’kidlagan [10]. Bu holat milliy mexanizmlarning normativ mavjudligi hali ularning samaradorligini kafolatlamasligini ko‘rsatdi va keyingi islohotlarning yo‘nalishini belgilab berdi.

Uchinchi bosqich (2017–2022): tizimli islohotlar va strategik rejalashtirish

2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi [2] inson huquqlari sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur strategiya doirasida 70 dan ortiq qonun qabul qilingani va ularda inson huquqlari ustuvor qadriyat sifatida e’tirof etilgani rasmiy manbalarda qayd etiladi. Shu davrda Ombudsman va Milliy markazning faoliyati sezilarli takomillashtirildi: 2019-yilda Ombudsman huzurida qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha Milliy preventiv mexanizm qonunchilik asosida joriy etildi va mustahkamlandi, bu orqali jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsxonalari va boshqa yopiq muassasalarda jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yildi. 2020-yilda Ombudsman Milliy inson huquqlari institutlarining Global alyansi tomonidan Parij prinsiplari asosida akkreditatsiyadan o‘tkazildi va 2021-yildan “B” maqomiga ega bo‘ldi. Shuningdek, Ombudsman huzurida Bola huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman o‘rinbosari) faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur bosqichning muhim hujjati – 2020-yil 22-iyundagi Prezident farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi bo‘ldi [3]. Strategiya xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga izchil joriy etishni, Oliy Majlis palatalari tomonidan mamlakatda inson huquqlari holati to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash amaliyotini hamda xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar bilan hamkorlik bo‘yicha milliy harakat rejalarini (“yo‘l xaritalari”) joriy etishni nazarda tutadi. O‘zbekistonning 2021–2023-yillar muddatiga BMT Inson huquqlari kengashi a’zoligiga saylanishi ham bu yo‘nalishdagi xalqaro e’tirof sifatida baholanadi.

To‘rtinchi bosqich (2023-yildan): yangi Konstitutsiya va yangi huquqiy vositalar

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan va 1-mayda kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya [1] mexanizmlarning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi. Konstitutsiya inson va uning qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida mustahkamlab, shaxs erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqat

sud qarori asosida amalga oshirilishini belgilaydi [5]. Eng muhim yangilik – har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun muayyan ishda unga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi kafolatlanganidir. Bu konstitutsiyaviy nazorat imkoniyatlarini kengaytirib, fuqaro va yuridik shaxslarning Asosiy qonun bilan kafolatlangan huquqlarni himoya qilishdagi rolini oshirdi [6]. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun murojaat qilish huquqiga ega subyektlar doirasini kengaytirdi: ularga Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman), uning o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy markazi hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil ham kiritildi [6]. Qonunga ko‘ra, Konstitutsiyaviy sud qarori qat’iy bo‘lib, ustidan shikoyat qilinmaydi. 2024-yil 15-noyabrda esa Prezident tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi qonun imzolandi [4], bu institutning huquqiy asoslarini yangi Konstitutsiya talablariga moslashtirishga xizmat qildi.

Mavjud muammolar. Mexanizmlarning rivojlanishiga qaramay, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, normativ asoslarning mavjudligi bilan ularning amaldagi samaradorligi o‘rtasida farq paydo bo‘lishi xavfi doimiy dolzarbligicha qolmoqda; yuqorida keltirilgan habeas corpus tajribasi bunga misol bo‘ladi [10]. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy shikoyat institutining joriy qilinishi Konstitutsiyaviy sudga murojaatlar hajmining oshishiga olib keldi, bu esa murojaatlarni dastlabki ko‘rib chiqish tartibini, sud xodimlarining malakasini va raqamli texnologiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Uchinchidan, fuqarolarning, ayniqsa chekka hududlardagi aholining huquqiy ongi va o‘z huquqlarini himoya qilish usullari haqidagi xabardorlik darajasi bir xil emas; Ombudsmanning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jami 14 ta mintaqaviy vakili mavjudligi bu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan, ammo uning to‘liq bartaraf etilishi uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur. To‘rtinchidan, Ombudsman va boshqa institutlarning takliflari hamda ko‘rsatmalarining bajarilishi ustidan monitoring tizimi yanada kuchaytirilishi lozim.

Natija va muhokamalar. Rivojlanish istiqbollari

Tahlil natijalariga koʻra, milliy mexanizmlarni rivojlantirishning quyidagi yoʻnalishlari asosli hisoblanadi.

Birinchi, sud amaliyotida “inson qadri” tamoyilini va Konstitutsiyaning bevosita amal qilish qoidasini keng qoʻllash. Konstitutsiyaviy sud qarorlari umumiy yurisdiksiya sudlari, ma’muriy organlar va huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatida majburiy yoʻl-yoʻriq sifatida oʻz aksini topishi, bu borada sudyalar va advokatlarni oʻqitish tizimi yoʻlga qoʻyilishi lozim.

Ikkinchi, Ombudsman, Bola huquqlari boʻyicha vakil va Milliy markaz faoliyatida Parij prinsiplariga toʻliq muvofiqlikni ta’minlash. Ombudsmanning mustaqilligi, moliyaviy va tashkiliy kafolatlari kuchaytirilsa, uning Global alyansdagi maqomini yaxshilash uchun asos yaratiladi. Shuningdek, 2024-yilda qabul qilingan yangi qonun normalarining amaliyotda toʻliq qoʻllanilishini ta’minlash muhim.

Uchinchi, qiynoqlarning oldini olish tizimini mustahkamlash: Milliy preventiv mexanizm tavsiyalarining bajarilishini kuzatish, tergov va jazoni ijro etish muassasalarida jamoatchilik nazoratini kengaytirish hamda xalqaro shartnoma organlarining (xususan, BMT Qiynoqlarga qarshi qoʻmitasi) tavsiyalarini izchil amalga oshirish [11].

Toʻrtinchi, murojaat qilish mexanizmlarini raqamlashtirish. Konstitutsiyaviy sudga, Ombudsmanga va boshqa organlarga elektron murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, murojaatlar holati ustidan onlayn kuzatuvni joriy etish fuqarolar uchun mexanizmlarning ochiqligi va qulayligini oshiradi.

Beshinchi, huquqiy ta’lim va madaniyatni rivojlantirish. Maktab, oliy ta’lim muassasalari (shu jumladan harbiy ta’lim muassasalari) va ommaviy axborot vositalari orqali inson huquqlari boʻyicha bilimlarni targʻib qilish, xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi xodimlar uchun inson huquqlari mavzusidagi maxsus oʻquv kurslarini muntazam oʻtkazish zarur. Oltinchi, Milliy strategiya va xalqaro majburiyatlarni bajarishda izchil hisobdorlik. Inson huquqlari holati toʻgʻrisidagi davlat hisobotlarini ochiq muhokama qilish, nodavlat notijorat tashkilotlari va ilmiy hamjamiyat ishtirokini kengaytirish, xalqaro shartnomalar boʻyicha qoʻshimcha individual shikoyat mexanizmlarini koʻrib chiqish institutsional ishonchni oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning milliy huquqiy mexanizmlari to‘rt bosqichda shakllanganini ko‘rsatadi: 1991–1996-yillarda konstitutsiyaviy va institutsional poydevor yaratildi; 1997–2016-yillarda Ombudsman va Milliy markaz institutlari mustahkamlanib, o‘lim jazosi bekor qilindi va habeas corpus joriy etildi; 2017–2022-yillarda Harakatlar strategiyasi, Milliy preventiv mexanizm va Milliy strategiya orqali tizimli islohotlar amalga oshirildi; 2023-yildan boshlab yangi Konstitutsiya va konstitutsiyaviy shikoyat instituti himoya vositalarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

Shu bilan birga, mexanizmlarning samaradorligi ularning normativ mustahkamlanishi bilan emas, balki amaliy qo‘llanilishi, mustaqil institutlarning real vakolatlari va fuqarolarning huquqiy xabardorligi bilan o‘lchanadi. Shu bois kelgusida sud amaliyotini bevosita amal qiluvchi konstitutsiyaviy normalar asosida takomillashtirish, Ombudsman va boshqa institutlarning mustaqilligini mustahkamlash, qiynoqlarning oldini olish tizimini kuchaytirish, murojaat mexanizmlarini raqamlashtirish hamda huquqiy ta’limni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar bo‘lishi lozim. Bu yo‘nalishlar inson huquqlarini himoya qilishning milliy tizimini xalqaro standartlarga to‘liq mos va fuqarolar uchun ishonchli qilib shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023-yil 30-aprel umumxalq referendumida qabul qilingan, 2023-yil 1-mayda kuchga kirgan. – URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasining “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuni (2024-yil 15-noyabrda imzolangan). URL: https://ombudsman.uz

5. Mamataliyeva Sh.X. Inson huquqlari va demokratik konstitutsiyaviy tuzum o‘rtasidagi bog‘liqlik // New Innovations in National Education. 2023. 12-son, 1-jild, 1-qism. B. 9–10.

6. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun. URL: https://lex.uz

7. Universal Declaration of Human Rights. Adopted by UN General Assembly resolution 217 A (III) of 10 December 1948. URL: https://www.un.org

8. International Covenant on Civil and Political Rights. Adopted by UN General Assembly resolution 2200 A (XXI) of 16 December 1966. URL: https://www.ohchr.org

9. Convention against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment. Adopted by UN General Assembly resolution 39/46 of 10 December 1984. URL: https://www.ohchr.org

10. Human Rights Watch. “No One Left to Witness”: Torture, the Failure of Habeas Corpus, and the Silencing of Lawyers in Uzbekistan. – New York, 13 December 2011. URL: https://www.hrw.org

11. United Nations Committee against Torture. Conclusions and recommendations on Uzbekistan, CAT/C/UZB/CO/3, 26 February 2008. https://www.ohchr.org

12. United Nations General Assembly, Security Council. Letter on measures taken by Uzbekistan towards the abolition of the death penalty by January 2008, A/60/849. New York, 2006. URL: https://digitallibrary.un.org

13. Asia Pacific Forum of National Human Rights Institutions. Ombudsman of Uzbekistan: Establishment.

https://www.asiapacificforum.net/members/uzbekistan